



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 1-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



O'zbek tilidagi xalqaro affiksoidlar (yevropa tillari negizida)

Abdurashidova Sayyora Sirojiddin qizi

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi xalqaro affiksoidlar Yevropa tillari (asosan ingliz, nemis va lotin–yunon manbalari) asosida tahlil qilinadi. Xalqaro affiksoidlarning o'zbek tiliga kirib kelish yo'llari, ularning morfemik tabiati hamda derivatsion tizimdagi o'rni yoritiladi. Affiksoidlarning affiks va erkin o'zaklar bilan chegaradosh xususiyatlari, semantik va funksional faolligi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, xalqaro affiksoidlarning terminologik birliklar va yangi yasama so'zlar hosil qilishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro affiksoid, derivatsion tizim, o'zbek tili, Yevropa tillari, morfema, so'z yasalishi, affiks, o'zak, terminologiya.

Аннотация. В статье анализируются международные аффиксоиды в узбекском языке на основе европейских языков (прежде всего английского, немецкого, а также латинско-греческих источников). Рассматриваются пути проникновения международных аффиксоидов в узбекский язык, их морфемная природа и место в деривационной системе. На примерах раскрываются пограничные признаки аффиксоидов между аффиксами и свободными корнями, а также их семантическая и функциональная активность. Особое внимание уделяется роли международных аффиксоидов в формировании терминологической лексики и новых производных слов.

Ключевые слова: международный аффиксоид, деривационная система, узбекский язык, европейские языки, морфема, словообразование, аффикс, корень, терминология.

Abstract. This article examines international affixoids in the Uzbek language based on European languages, primarily English, French, German, and Latin-Greek sources. The study analyzes the ways in which international affixoids entered the Uzbek language, their morphemic nature, and their position within the derivational system. The borderline features of affixoids between affixes and free roots, as well as their semantic and functional productivity, are illustrated through examples. Special attention is given to the role of international affixoids in the formation of terminological units and newly derived words.

Keywords: international affixoid, derivational system, Uzbek language, European languages, morpheme, word formation, affix, root, terminology.

Har qanday til vaqt o'tishi davomida ma'lum darajada o'zgarishga uchraydi va bu o'zgarishlar tilning deyarli barcha qatlamlarida kuzatiladi. Xususan, so'z yasash tizimida bunday jarayon yanada yaqqol seziladi. Leksik birliklar bir til tarkibidan boshqasiga ko'chib o'tishi tabiiy hodisa bo'lib, bu ko'plab omillar ta'sirida ro'y beradi. Affiksoidlar ham boshqa til birliklari kabi o'zbek tiliga kirib



kelgan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan affiksoidlar tilimizda anchayin faol qo'llanadi. Shu bilan birga, o'zbek tilida sof turkiy affiksoidlar ham mavjud.

Texnika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli hozirgi davrda Yevropa tillaridan kirib kelayotgan birliklar, jumladan affiksoidlar ham sezilarli darajada ko'paymoqda. Miqdoriy jihatdan ular tilimizdagi vositalar orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Fors-tojik manbali ayrim affiksoidlar asta-sekin faoliyati pasayib borayotgan bir paytda, zamonaviy affiksoidlar o'zbek tiliga tezkor tarzda singib ketmoqda va ularning soni yil sayin ortib bormoqda. O'zbek tili izohli lug'atida bunday affiksoidlar xalqaro birliklar tarkibida o'zlashgan elementlar sifatida qayd etiladi. Ularning aksariyati rus va ingliz tillari orqali kirgan bo'lsa-da, ko'pchiligi asl jihatdan yunon tili manbalariga borib taqaladi. Zamonaviy globallashuv, fan va texnika taraqqiyoti sharoitida bunday affiksoidlarning turli tillarga kirib borish jarayoni yanada jadallashgan bo'lib, uni to'xtatish mumkin emas.

O'zbek tilida faol qo'llanayotgan ko'plab affiksoidlar yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ular asosan rus va ingliz tillari orqali tilimizga kirib kelgan. Bunday affiksoidlar xalqaro terminologiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi hamda ilm-fan, texnika, iqtisod, biologiya va boshqa sohalarga oid atamalarni yaratishda muhim vazifa bajaradi.

Yunon tiliga mansub avto-, agro-, anti-, bio-, geo-, gidro-, makro-, mikro-, neo-, poli-, mono-, narko- kabi affiksoidlar hamda lotincha avia-, multi-affiksoidlari o'zbek tilidagi baynalmillal so'zlarning oldingi tarkibiy qismi sifatida qo'llanadi va shu so'zning ma'nosiga aniq semantik yo'nalish beradi. Ular predmet, hodisa yoki jarayonning alohida xususiyatlarini – masalan, “o'zini harakatlantiruvchi”, “dala-qishloq xo'jaligiga oid”, “qarshi”, “hayotga doir”, “yerga oid”, “suvga aloqador”, “katta”, “kichik”, “yangi”, “ko'p”, “bir”, “ko'p sonlilik”, “narkotik moddalarga doir” kabi ma'nolarni ifodalaydi. Mazkur affiksoidlar tilimizda asosan baynalmillal terminlar tarkibida qo'llanib, yangi ilmiy atamalarni yaratishda yuqori darajada mahsuldorlik ko'rsatadi. Bugungi globallashuv davrida fan va texnika taraqqiyotining tezlashuvi natijasida bunday affiksoidlarning qo'llanishi yanada kengayib, terminologik tizimning barqaror va faol qatlami sifatida shakllanib bormoqda.

Xalqaro terminelementlar zamonaviy terminologiya tizimining asosiy poydevorlaridan biri bo'lib, ular:

1. universal (ko'p tillarda tushunarli);
2. semantik jihatdan izchil (bir ma'nolilik);
3. tizimlashtiruvchi (turkum va tarmoqlar bo'yicha tartibga soluvchi);
4. barqaror (vaziyatga bog'liq o'zgaruvchanlikdan holi) birliklardir;

Ingliz va rus tillari orqali Yevropadan faqat o'zakdan iborat so'zlar emas, balki so'z yasovchi elementlar ham kirib kelgan. Masalan, yunon tilidan anti-,



giper-, tele-, -graf, -log; lotin tilidan utra-, inter- kabilardir. Bu kabi soʻz yasovchilarni terminelementlar ham deb atashadi va ular oʻzbek tiliga oʻzlashma soʻzlar hisoblanadi. Bu oʻzlashgan soʻz yasovchi elementlar soʻz tarkibida yoki boshida, yoki soʻz oxirida qoʻshiladi. Ammo ayrimlari ham soʻz boshida, ham soʻz oxirida kelishi mumkin:

1. Andr- yunoncha “erkak” degan maʼnoda ishlatiladi: soʻz boshida androgen, androfobiya; soʻz oxirida Ixtiandr- baliq odam.
2. Antro- soʻz boshida antroponim, antropologiya, antrofobiya; soʻz oxirida pitekantrop, sinantrop;
3. Gen- soʻz boshida genetika, genosid; soʻz oxirida gidrogen, oksigen;
4. Gramma- soʻz boshida grammatika, grammafon; soʻz oxirida kardiogramma, telegramma;

Bundan tashqari Yevropadan oʻzlashgan affiksoidlar bir nechta sohalarda yangi soʻz yasay oladi. Masalan, Poli- matematikada (polinom, poliedr), kimyoda (polimer), tibbiyotda (poliartrit), tarixda (poligamiya), musiqashunoslikda (polifoniya), tilshunoslikda (poliglot, polisemiya), biologiyada (polimorfizm), matbuotda (poligrafiya), harbiy terminida (poligon) qoʻllaniladi.

Yevropadan oʻzlashgan affiksoidlarni oʻz qatorida sinonimik qator ham yasay olamiz: giper-, infra-, super-, ultra-, ekstra- kabilar belgini oshirib koʻrsatadi.

Chetdan kirib kelgan affiksoidlar boshqa tildan boʻlishiga qaramasdan oʻzbek tili bilan bemaʼloli yangi soʻz yasab keta oladi: superqahramon, mikroqarz, makroiqtisodiyot, ekomahsulot. Sh.Rahmatullayev anti- affiksoidini ijtimoiy-siyosiy termin deb ifodalaydi.

Baynalmilal terminlarni tashkil etuvchi prepozitiv terminelementlar (yaʼni soʻz boshida keluvchi komponentlar) zamonaviy ilm-fan terminologiyasining ajralmas qismidir. Ular asosan yunon va lotin tillaridan kirib kelgan boʻlib, koʻplab ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, gumanitar va tabiiy fan sohalorida faol ishlatiladi. Ushbu terminelementlar semantik barqarorlik, termin yasashdagi izchillik va bir maʼnolilik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Tasnifga koʻra, prepozitiv terminelementlar uch guruhga boʻlinadi:

1. Maʼnoli asos soʻzlardan shakllangan terminelementlar – bio-, geo-, aero-, gastro-, zoo-, mikro-, makro-, kardio-, nevro-, gidro- kabi elementlar oʻzlari qatnashgan terminlarda mazkur sohalarning semantik zaminini belgilaydi. Bu guruhga kiruvchi elementlar oʻz mustaqil leksik maʼnolariga ega boʻlib, koʻplab fanlarda termin yasovchi sifatida xizmat qiladi.

2. Sonlarga oid terminelementlar – uni-, bi-, di-, tetra-, penta-, geksa-, deka-, milli- kabi elementlar sanash, tartib va miqdorni bildiruvchi birliklar boʻlib, ular terminlarda qatʼiy matematik va strukturaviy mazmun beradi.

3. Yuklama va pristavkaviy (grammatik) xarakterdagi terminelementlar – a-, an-, apo-, anti-, de-, dis-, in-, meta-, para-, post-, pre-, trans-, ultra-, re- kabi



komponentlar terminlarda harakat yoʻnalishini, qarama-qarshilikni, joylashuvni yoki darajani ifodalaydi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bu terminelementlarning umumiy soni turli manbalarda har xil koʻrsatiladi — 75 tadan 180 tagacha. N.V.Yushmanov keltirgan maʼlumotlarga koʻra esa, ularning soni 1100 dan ortiq boʻlib, yangi tushunchalar va ilmiy taraqqiyot bilan bu roʻyxat doimiy ravishda kengayib boradi. Qoʻllanish doirasi nuqtai nazaridan prepozitiv terminelementlar ikki turga ajraladi: Maxsuslashgan elementlar — kimyo (karbo-, nitro-, sulʼfo-, atset-), tibbiyot (kardio-, mio-, laringo-, leyko-) kabi sohalarda koʻproq uchraydigan, maʼlum fan doirasida faol ishlatiladigan elementlar; Universal elementlar: geo-, makro-, mikro-, mono-, poli-, tele-, anti- kabi har xil fan tarmoqlarida baravar faoliyat koʻrsatuvchi elementlar boʻlib, ular keng terminologik sistemalarda bir xil semantik funktsiya bilan ishtirok etadi. Masalan, poli-terminelementi (“koʻp”) deyarli barcha sohalarda uchraydi va har doim “koʻplik, koʻp shakllilik” semasini bildiradi: polinom, poliartrit, poligamiya, polifoniya, poligrafiya, poligon kabi terminlar misol boʻla oladi. Prepozitiv terminelementlar tilning terminologik qatlamida turkumlovchi, semantik markaz boʻlib xizmat qiladi. Ular: Ilmiy aniq konseptlarni ifodalaydi; Tasniflovchi sistemalarni yaratishda muhim vosita hisoblanadi; Turli tillararo terminologik barqarorlik va unifikatsiyani taʼminlaydi; Ham umumiy, ham maxsus fan tarmoqlarida mantiqiy-morfologik moslikni shakllantiradi.

Ingliz tilidagi affiksoidlar ochiq tizim boʻlib, unda eskirgan birliklar kamayishi va yangi derivatsion elementlarning paydo boʻlishi jarayoni uzluksiz davom etadi. Yangi affiksoidlarning shakllanishi neologizatsiya bilan bogʻliq boʻlsa-da, bu jarayonni toʻliq qamrab olmaydi. Soʻnggi yillarda rus tilida “акба-”, “петро-”, “мини-” kabi prefiksoidlar hamda “-вед” kabi suffiksoidlar ishtirokida koʻplab yangi birliklar yuzaga kelgani affiksoidlarning derivatsion tizimdagi barqaror mavqeini koʻrsatadi. Shu bilan birga, anʼanaviy affiksoidlarda semantik tafakkurlanish jarayoni kuchayib, ularning mazmun doirasi kengaymoqda. Bu tendensiya zamonaviy lugʻatchilikda ham aks etib, affiksoidlar maʼnosi yanada batafsil tavsiflanmoqda. Masalan, “eko-” affiksoidi XX–XXI asrlarda yuqori produktivlikka ega boʻlib, bir nechta yangi semantik yoʻnalishlarda faol qoʻllanadi:

- 1□. tabiatni muhofaza qilish bilan bogʻliq (“экобус”, “экотехнологии”);
- 2□. tabiiy-biologik xususiyatni bildiruvchi (“экосистема”, “экофера”);
- 3□. tabiat hodisalari va resurslari bilan bogʻliq (“экомузей”, “экотуризм”);
- 4□. himoya va saqlash maʼnosida (“эколингвистика”);
- 5□. ekologik toza, zararli qoʻshimchalarsiz predmetlarni anglatuvchi (“экопродукты”, “экоматериалы”).

Kripto– affiksoidi (yunoncha kryptos – “yashirin”, “maxfiy”) zamonaviy tillarda, jumladan rus va oʻzbek tillarida ham faol qoʻllaniluvchi tarkibiy unsurdir. U soʻz tarkibida “yashirin”, “sirli”, “koʻzga koʻrinmas” maʼnolarini ifodalaydi va



asosan texnologiya, xavfsizlik, siyosat hamda ilmiy terminologiyada ishlatiladi. Masalan: kriptografiya (yashirin yozuv ilmi), kriptovalyuta (raqamli valyuta, yashirin kod asosida ishlovchi to'lov tizimi), kriptozanaliz, kriptohimoya, kriptofayl kabi so'zlarda ushbu affiksoidning "maxfiylik" semasi saqlanadi. Kripto– elementi o'zbek tilida asosan xalqaro terminlar tarkibida ishlatiladi va yuqori mahsuldorlikka ega. Uning semantik yadrosi — "yashirinlik, shifrlilik, maxfiylik" ma'nosiga tayanadi. O'zbek tilidagi xalqaro affiksoidlar Yevropa tillari negizida shakllangan bo'lib, tilning derivatsion tizimida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro affiksoidlar etimologik jihatdan mustaqil leksemalardan kelib chiqqan bo'lsa-da, hozirgi o'zbek tilida so'z yasovchi birlik sifatida faol qo'llanilib, affiks va erkin o'zaklar orasidagi oraliq morfemalar sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro affiksoidlarning o'zbek tiliga kirib kelishi, asosan, ilm-fan, texnika, siyosat, madaniyat va ijtimoiy sohalar bilan bog'liq bo'lib, ular terminologik tizimning boyishiga xizmat qilmoqda. Tahlil shuni tasdiqlaydiki, xalqaro affiksoidlar morfemik jihatdan barqarorlashib borayotgan bo'lsa-da, ularning affiks yoki o'zak sifatidagi maqomi masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Bu holat affiksoidlarning chegaraviy xususiyatga ega ekanini va ularni alohida lingvistik birlik sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro affiksoidlar o'zbek tilining derivatsion tizimini rivojlantiruvchi, terminologik leksikani boyituvchi va tilning global ilmiy-madaniy makonga integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim morfemik vosita hisoblanadi. Ularni tizimli va qiyosiy asosda o'rganish o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi, morfema nazariyasi va til taraqqiyoti masalalarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov M. O'zbek tiliga yevropa tillaridan o'zlashgan affiksoidlar. // Germany: International scientific-online conference Models and methods for increasing the efficiency of innovative research, 11 March 2022. P 4
2. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2017. – B 39.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati – Toshkent: O'qituvchi, 1984. B 18
4. Григоренко О.В. Новые аффиксоиды в словообразовательной системе русского языка на рубеже XX–XXI веков. // Русский язык в школе, 2019. № 3. С. 69–75.
5. Uralov A. B. Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar. // FarDU ilmiy xabarlar, 2023. N5. – B 32.
6. Uralov A.B. Fuziya va affiksoidlar masalasi. // O'zbek tilshunosligini rivojlantirishni dolzarb masalalari. Toshkent: O'zkitobsavdonashriyoti, 2020. B 70.